

## **YOSHLARNI YUKSAK MA'NAVIYATLI SHAXS QILIB TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI.**

**Asliddin Xolboev,**

Yoshlar bilan ishlash bo'yicha  
dekan o'rinbosari

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta'lim tizimi elementlari, ta'lim jarayonlari va ijtimoiy hayot o'rtasidagi qonuniyatlar hamda ta'lim jarayonini innovatsion rivojlantirishning tahlili, yuksak ma'naviyat haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, inson, davlat, ma'naviyat, jamiyat, innovatsiya, ob'ekt, sub'ekt, g'oya, qonuniyat, tizim, jarayon, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, substantsiya, metodologiya, printsip, mezon.

Jahon madaniyatiga bebaho hissa qo'shgan Hofiz, Sa'diy, Jomiy, Navoiy kabi buyuk allomolarning yuksak ma'naviyatli shaxs tarbiyasiga oid qarashlari nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Ularning butun jahonga mashhur bo'lgan «Saodatnoma», «Guliston» va «Bo'ston», «Bahoriston», «Xamsa» kabi bebaho asarlari jahon madaniyati xazinasidan munosib o'rin egallagan. Yuksak ma'naviy – axloqni targ'ib qiladigan asarlar butun dunyo adabiyotida juda kam uchraydi . Yuksak ma'naviyatli shaxs tarbiyasiga oid an'ana yurtimiz madaniyati tarixida aslo to'xtab qolmaganligi xalqni o'zi bu boradagi ishlarning izchilligidag dalolat beradi. A. Donishning «O'g'illarga nasihat» (XIX a. oxiri), A. Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» (XIX a. boshlari) Islom Karimovning “ Yuks ak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarlarini eslash kifoya. Unda “Butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan buyuk alloma va aziz-avliyolarimiz orasida Abdulxoliq G'ijduvoni va Bahouddin Naqshbandning muborak siymosi alohida ajralib turadi. Ota-bobolarimiz ulug' avliyo Bahouddin Naqshbandga chin dildan ixlos qo'yib, uni «Bahouddini Balogardon» deb ta'riflab kelishida teran ma'no bor. Uning «Diling Ollohda, qo'ling mehnatda bo'lsin» degan hayotbaxsh hikmati dinimizning olijanob ma'no-mohiyatini yorqin ifodalab, xuddiki shu bugun aytilgandek jaranglaydi. Manbalarning guvohlik berishicha, Imom Buxoriy vafot etgan yili, ya'ni milodiy 870 yili tariximizdagi yana bir mumtoz siymo — Imom

Moturidiy tavallud topgan ekan. Imom Moturidiy bobomizning o'rtasidagi g'oyat xatarli va tahlikali bir vaziyatda o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, avlodlarga ibrat bo'ladigan ma'naviy jasorat namunasini ko'rsatib, islom olamida «Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi» degan yuksak sharafiga sazovor bo'lgani bu nodir shaxsning ulkan aql-zakovati va matonatidan dalolat beradi [4]

O'rtasidagi Amir Temur va temuriylar davrining, umumbashariy ma'naviyatga qo'shgan hissasini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Podshohlar, hukmdor va siyosiy arboblarning ma'naviyati, xulqi, axloq-odoblari, davlat va siyosat yuritish san'ati bayon qilingan «Temur tuzuklari»da ijtimoiy - siyosiy masalalar bilan birga ma'naviyat masalasiga ham katta ahamiyat berilgan. Ushbu asar Sharq va G'arbda mashhur bo'lgan, ko'p marta chop etilgan. Unda siyosatdoshning yurish-turishi, siyosat bobidagi faoliyati, xalq, qo'shin, ulamolar, arkoni davlat va boshqalarga munosabati uchun asosiy mezon bo'ladigan ma'naviyat tamoyillari o'sha zamon nuqtai nazaridan bayon qilingan. Sohibqiron Amir Temur tomonidan asos solingan buyuk imperiya – bir tomondan, milliy davlatchilikning real hayotdagi ifodasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, u yuksak ma'naviyatning rivojlanishiga juda katta zamin yaratib berdi. Bugungi kunda biz, yosh avlodni yuksak ma'naviy shaxs darajasiga olib chiqish dasturi ustida ishlar ekanmiz, ulardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qadimdan ota - bobolarimiz ezgu g'oyalarga, ma'naviy merosga, an'analar va zamonaviy talablarga asoslanmagan har qanday davlat tizimi uzoqqa bormasligini yaxshi anglagan xolda ish olib borgan. Shuning uchun ham bu buyuk o'lkada ota – bobolar ma'naviyatiga asoslangan mustaqqil, demokratik davlat o'z faoliyatini boshlab, 25 yil ichida misli ko'rilmagan, erishilishi qiyin bo'lgan yutiqlarni qo'lga kiritdi. Shu bilan birga, u muayyan vaqt talab etadigan, asta-sekinlik bilan shakllanib boradigan murakkab tarixiy jarayondir. Sharq milliy davlatchiligida axloq, ma'naviyat, komillik va adolat asosiy mezon qilib olingan. Insonparvarlik, ezgulikni himoya qilish, madaniyatini rivojlantirish hammavaqt, har qanday sharoitda ham muhim soha sifatida qaralgan. Shuning uchun ham

aynan ana shu zaminda insoniyat tarixida burilish yasagan va katta ahamiyatga ega bo'lgan ulkan ma'naviyat yaratilib, avloddan avlodga uzatilib, boyitib va takomillashtirib kelingan. O'zbek davlatchiligi va qonunchiligi tarixi juda boy va qadimiy bo'lib, u miloddan avvalgi 3-4 minginchi yillardayoq shakllangan. Tabiiyki, davlatchilik qaror topgan joyda uning o'ziga xos ehtiyojlaridan kelib chiqqan qonunchiligi, tartib va tamoyillari ham vujudga keladi. Bu jarayon ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida xalq dunyoqarashi, ma'naviy -ruhiy ehtiyoji bilan birga mavjud axloqiy qoidalar, demakki, ma'naviy tamoyillar bilan uyg'unlashib ketgan. Amir Temurning tariximizdagi o'rnini va mamlakatni ozod qilishdagi xizmati katta. Uning mohir davlat arbobi, tajribali siyosatdon sifatidagi o'git va nasihatlarini keyingi davrning siyosiy arboblari uchun ham qo'llanma bo'lib xizmat qilgani shubhasiz. "Amir Temur bobomizning bunday chuqur ma'noli hikmatlari xalqimizda qadimdan mavjud bo'lgan «Bilagi zo'r birni, bilimi zo'r mingni yiqar» degan maqolga hamohang bo'lib, insonni doimo aql-idrok, adolat va yuksak ma'naviyat asosida yashashga da'vat etishi bilan e'tiborlidir («Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch», 45-b.).

Imom Burxoniddin Marg'inoniyning 53 kitobdan iborat "Hidoya" asari ma'naviyatimizning tarixiy asoslari orasida alohida o'rin tutadi. Mazkur asardan o'rin olgan fikr ilmi — huquqshunoslikka doir qator ko'rsatmalar, qonunlar, xulosalar va fikrlar bu fikrni yaqqol isbotlaydi. Keyinroq butun Sharq davlatchiligi ayni shu qonuniyatlarga tayanib, boshqaruv usullarini joriy qilganligi ham xalqimiz ma'naviyatining tarixiylikini ko'rsatuvchi omildir. Sohibqiron Amir Temur ham ana shunday an'anaviylik asosida o'z davlatida nihoyatda aniq va hayotiy qonunchilikni joriy etib, ma'naviy masalalarga asosiy e'tibor qaratgani bejiz emas. Amir Temurning markazlashgan davlat va millat qudratini yuksaltirish uchun ma'naviyat va adolatga asoslangan saltanatga asos solishi, Mirzo Ulug'bekning fan va madaniyat ravnaqi, Alisher Navoiyning adabiyot va san'at, ilm va hunar ahliga rahnamoligi, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa temuriyodalarning turli din va mazhabdagi xalqlarni birlashtirib, insonparvar jamiyatni vujudga keltirish yo'lidagi tajribalari bugungi kunda faxr hissini

uyg'otadi. Buyuk ajdodlarimiz yashagan bu ko'hna zaminda qadim-qadimdan buyon hur fikr qadrlanganligi, fan va madaniyatt, adabiyot va san'atning naqadar ravnaq topganida yaqqol ko'rish mumkin. Fikr erkinligi tufayli buyuk ajdodlarimiz jahonshumul asarlar yaratganlar. Ular qoldirgan meros, jamiyat a'zolari ma'naviyatini yuksaltirish bilan bog'liq intilish va harakatlar tarixiy taraqqiyot jarayonida avloddan avlodga o'tib kelgan. Bular albatta, ma'naviyatning tarixiy xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Ana shu tarixiy asoslarni nazarda tutib Davlatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov: "Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o'tmishimizdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurishga tatbiq etmog'imiz kerak", - degan g'oyani ilgari surgan edi. Tabiiyki, ushbu g'oya bugungi taraqqiyotimizning bosh mazmunini belgilaydiki, bunda ma'naviy omillarning ustuvorligi hamda uning tarixiyliigi va zamonaviyiligi tamoyillari yetakchi o'rin egallaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi – T. O'zbekiston, 1992. - 43 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekistan taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
3. Karimov I.A. Jaxon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi, o'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.:«Iqtisodiyot» 2009y
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent "Ma'naviyat". 2008 y 173 bet